

**TURKIY TILI FONETIKASI TARIXI. DIALEKTAL FONETIKA.**

*Odamboyeva Nafosat Ahad qizi*

*Nukus davlat pedagogika instituti Ellikqal'a pedagogika fakulteti talabasi*

*Yusupboyeva Gulsara Akmal qizi*

*Nukus davlat pedagogika instituti Ellikqal'a pedagogika fakulteti talabasi*

*Jalgasova Hilola Maxmud qizi*

*Nukus davlat pedagogika instituti Ellikqal'a pedagogika fakulteti talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o'zbek tilining tarixiy fonetikasi, unli va undosh harflar tizim haqidagi tilshunoslar fikri, mamlakatimiz hududida qadimdan yaxshab kelgan xalqlar shevalaridagi fonetik farqlar hamda nutq tovushlarining turli xil tomonlari haqida fikr yuritiladi.

**Tayanch iboralar:** fonema, unlilar, sheva, tilshunoslik, nutq tovushlari, undoshlar.

Har bir til o'z fonetikasiga ega. U shu tildagi tovushlarning hosil bo'lishi va talaffuzining o'ziga xos xususiyatlarini, uning tasnifi bilan bog'liq masalalarni o'rganadi, talaffuz va yozuv munosabatlarini hamda urg'u va bo'g'in xususiyatlarini tekshiradi.

Fonetika tilning tovushlar sistemasi va shu tovushlar bilan bog'liq bo'lgan har qanday hodisalarni o'rganar ekan, u tilning barcha sathlari bilan bog'liq. Fonetika – tilning keng ma'noda tovush tuzilishini o'rganuvchi tilshunoslikning bo'limi. U tovushlar bilan bog'liq bo'lgan har qanday hodisalarni tekshiradi.<sup>1</sup> Inson o'z tafakkuridagi fikrlarni gaplar orqali boshqa bir insonga yetkazi orqali fikr-mulohaza almashadi. Gaplarimiz so'zlardan, so'zlar tovushlardan tashkil topadi. Tovushlarning yozuvdagi ko'rinishi harfdir. Nutq tovushlari turli xil tomondan o'rganiladi: tarixiy nuqtai nazardan, qiyosiy tomondan, hozirgi o'zbek tili va mahalliy dialektlarning nutq tovushlarini taqqoslash jihatidan.

Bugungi kunda o'zbek tilini o'rganayotgan o'quvchilar o'zbek tili fonetikasi, tovushlar tizimi, harflar, fonetik hodisalari haqida ma'lumotlarga ega. Lekin, guvohi bo'lyapmizki, ko'pchilik fonetika tarixi, o'zbek tili fonetikasi o'tmishi, shevalar fonetikasi haqida deyarli ma'lumotga ega emas. Bilamizki shevalarda harflar tizimi, unli va undoshlar soni umuman boshqacha va ularning ham o'z tarixiy rivojlanishi, shakllanish taraqqiyoti mavjud. Biz nutq tovushlarini o'rganishga tarixiy nuqtai nazardan yondoshamiz. Tarixiy fonetika ma'lum bir tilning tovush sistemasini tarixiy rivojlanishda o'rganadi, ya'ni til taraqqiyotining turli davrlarida tovush sistemasidagi tarixiy o'zgarishlarni, ularning o'zgarish sabablarini tekshiradi. Unli va undosh tovushlarning shakllanishi va tadrijiy bosqichlari, o'zgarishlari kabi qator manbaalar

bilan tanishtiradi. O'zbek tili tarixiy fonetikasini o'rganish uchun juda ko'plab manbaalar mavjud. Maxmud Koshg'ariyning „Devoni lug'at at-turk“, Alisher Navoiyning „Muhokamat ul-lug'atayn“, Boburning „Muhtasar“ kabi bir qancha o'nlab asarlar bunga na'muna bo'la oladi. Til oilasining o'ziga xos xususiyatlari muayyan davr nuqtayi nazaridan o'rganiladi. Tilga xos fonetik-fonologik, leksik-semantik, morfem-morfologik xususiyatlar o'zgaruvchan bo'lib. turli tillardagi o'xshash jihatlar genetik asos til belgilari bilan izohlanadi. Shu bilan bir qatorda tashqi omillar ham nazarda tutiladi. Maxmud Koshg'ariy turkiy tillar fonetik qonuniyatini birinchilardan bo'lib yoritgan olimdir. U „Devonu lug'otit turk“da fonetik qommiyatlarining tovush almashuvi, tovush tushishi, tovush ortishi kabi ko'rinishlarini batafsil izohlagan. Maxmud Koshg'ariy sharqiy va g'arbiy guruh turkiy tillarining qator farqli xususiyatlarini keltiradi. Masalan, sharqiy va g'arbiy guruh turkiy tillarining fonetik jihatdan quyidagicha farqlanishini ko'rsatadi:

1. Sharqiy turkiy tillarda:

- a) jarangsiz t - tovushi keladi: tebe;
- b) til o'rta y tovushi keladi; yinju, yilk;
- d) sonor m - tovushi keladi: men, т ш.

2. G'arbiy turkiy tillarda:

- a) j arangli d- tovushi keladi: debey;
- b) til oldi j tovushi keladi yoki y tovushi: kelm aydi\ja n ju , elkin;
- d) portlochi b ~ tovushi keladi: ben, but).

Turkiy tillarning aksariyatida unli fonemalar 8ta. Turkiy tillar undosh tovushlar miqdori jihatidan, deyarli, farqlanmavdi. Turkiy tillar fonetikasiga bag'ishlangan adabiyotlarda undoshlar 20 tadan - 30 tagacha bo'lgan miqdorda ko'rsatiladi. Undoshlar tizimida umumiy jihatlar bilan birga farqli xususiyatlar ham mavjud. Masalan, turkiy tillarda undoshlar so'z tarkibida qo'llanish o'rni nuqtayi nazaridan o'zaro farqlanadi.<sup>2</sup> Turkiy til tarixidagi tovushlar masalasiga juda ko'p olimlar to'xtalgan. Jumladan, H.Ne'matov o'zining „O'zbek tili tarixiy fonetikasi“ kitobida eski turkiy til undoshlari haqida quyidagilarni qayd etgan:

Undoshlar sohadida eski turkiy tilning qadimgi turkiy tildan keskin farqlaridan biri shundaki, qadimgi turkiy tilda b, d, y, l, n, i, r, s, t, q, g' qattiqlik (yog'onligi) va yumshoqligi (ingichkaligi) bilan farqlanuvchi ikkitadan mustaqil undosh fonemani tashkil etgan. Ularning har biri o'z mustaqil harfiy ifodasiga ega bo'lgan.

Eski turkiy tilning ilk taraqqiyot davrlarida undagi undosh tovushlar tavsifi Mahmud Koshg'ariy tomonidan berilgan edi. Mahmud Koshg'ariy ko'rsatgan undoshlar to'la emas. Maxmud Koshg'ariy o'z davri tiliga sirg'aluvchi, jarangsiz, bog'iz undoshi „h“ xos emasligini uqtirib o'tadi, lekin bu ayrim shevalarda mavjud bo'lgan.<sup>3</sup>

O'zbek shevalari fonetikasiga toxtalsak. O'zbek shevalaridagi sof turkiy so'zlarda b(б), p(п), v(в), т(т), t(т), d(д), s(с), ch(ч), dj(дж), sh(ш), п(п), l(л), r(р), й, к(к), g(г),

ц, х, q(K), h(x) undoshlari doim iste'molda bor. O 'zlashgan so'zlarda „ц“ undoshi „s“ („ts“) bilan, „j“ (sirgaluvchi bolsa ham) undoshi dj kabi tallaffuz qilinadi. „ф“ undoshi undov va taqlidiy so'zlarda aynan talaffuz etiladi, o'zlashgan so'zlarda esa p, ba'zan b undoshiga moyil talaffuz qilinadi. „H“ undoshi aksariyat shevalarda „x“ undoshi fiziologik tabiatiga moslashadi, lekin shimoliy o'zbek shevalarida, qipchoq shevalarida bu undosh talaffuzda bor.<sup>4</sup> Shevalarda tovushlarning biri biri bilan farqli tomonlari juda ko'p. Xorazm shevalarida mavjud bo'lgan tovushlarni ifodalovchi belgilar va ularning alfavit sirasi 32 harfdan iboratligi haqida Fattoh Abdullayev o'zining „Xorazm shevalari“ kitobida keltirgan. U o'z kitobida og'uz va qipchoq shevalari unililar miqdorini solishtirgan. Malumotlarga ko'ra, og'uz gruppasi shevalarida cho'ziq unililardan tashqari o'nta unli tovush mavjud. Qipchoq guruhi shevalarida to'qqizta mustaqil unli tovush bor. Bu sheva fonemalirining farqli taraflaridan biri. Ammo, ularning o'xshash tomonlari ham juda ko'p. Bu sohada ko'pgina tilshunoslar izlanish olib borganlar.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nabiyeva A, Zokirova R.H „ O'zbek tilining fonetikasi “ o'quv uslubiy qo'llanma. Andijon-2016.
2. Dadaboyev X.A, Xolmonova Z.T., Turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy grammatikasi “ Toshkent-2015
3. Ne'matov H. „O'zbek tili tarixiy fonetikasi“ Toshkent-1992
4. Ashirboyev S „O'zbek dialektologiyasi“ .Toshkent-2013.